

O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti huzuridagi
Statistika agentligining
2023-yil 21- dekabrda
88 - sonli buyrug'iga
ILOVA

Milliy gender statistikasi ko'rsatkichlarini shakllantirish bo'yicha uslubiy nizom

Mazkur uslubiy nizom Barqaror rivojlanish maqsadlari doirasida, Birlashgan Millatlar Tashkiloti(BMT)ning ayollar holati bo'yicha to'rtinchi Butunjahon konferensiyasida tasdiqlangan Pekin deklaratsiyasi va Harakat platformasi, Minimal gender ko'rsatkichlari to'plami kabi xalqaro tavsiyalar va standartlar, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 7-martdagi "Xotin-qizlarning mehnat huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirish va tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlashga oid chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4235-son qarori hamda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2021-yil 28-maydagi "2030-yilga qadar O'zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasini tasdiqlash haqida"gi SQ-297-IV-son qarori ijrosini ta'minlash maqsadida ishlab chiqilgan gender statistikasi ko'rsatkichlari tizimini tashkil etuvchi axborotlarni shakllantirish va hisoblash tartibini belgilaydi.

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur uslubiy nizomda quyidagi asosiy tushunchalar va ularning ta'riflaridan foydalaniladi:

gender – xotin-qizlar va erkaklar o'rtasidagi munosabatlarning jamiyat hayoti va faoliyatining barcha sohalarida, shu jumladan siyosat, iqtisodiyot, huquq, mafkura va madaniyat, ta'lim hamda ilm-fan sohalarida namoyon bo'ladigan ijtimoiy jihati;

gender statistikasi – statistikaning jamiyat hayoti va faoliyatining barcha sohalarida xotin-qizlar va erkaklarning holati to'g'risida har bir jins bo'yicha alohida ko'rsatilgan ma'lumotlarni o'z ichiga olgan, har xil jinsdagi shaxslarning ijtimoiy-siyosiy hayotning barcha sohalaridagi tegishli holatini aks ettiradigan, gender muammolarini va jamiyatdagi munosabatlarni yoritadigan qismi;

gender tengligi – erkaklar va ayollarning ijtimoiy nuqtai nazardan tengligi, teng huquq va majburiyatlarga, shuningdek, ulardan foydalanish uchun teng imkoniyatlar (resurslar va imkoniyatlardan teng foydalanish)ga ega bo'lishi.

2-bob. Milliy gender statistikasi ko'rsatkichlari tizimining tarkibi va uni shakllantirish manbalari.

2. Gender statistikasi hayotning barcha sohalarida ayollar va erkaklar maqomidagi farqlar va tengsizliklarni aks ettiradi. Gender statistikasini ishlab chiqish butun milliy statistika tizimiga taalluqli bo'lib, rasmiy statistikani birgalikda tayyorlaydigan va tarqatadigan statistika organlari hamda rasmiy statistikaning boshqa tayyorlovchilaridan olingan ma'lumotlarni qamrab oladi.

3. Statistika organlari gender statistikasi ko'rsatkichlari asosida jamiyat hayotining barcha sohalarida xotin-qizlar va erkaklarning holatini aks ettiradigan statistik axborotni yig'ishni, unga ishlov berishni, uni to'plashni, saqlashni, tahlil qilishni va e'lon qilishni amalga oshiradi.

4. Gender statistikasi ko'rsatkichlarini shakllantirish:
statistika organlari tomonidan amalga oshiriladigan statistika kuzatuvlariga;
davlat boshqaruvi organlarining ma'muriy ma'lumotlariga;
davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari tomonidan muntazam ravishda amalga oshiriladigan statistika kuzatuvlariga asoslanadi.

Gender statistikasi ko'rsatkichlari fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining, nodavlat notijorat tashkilotlarning va fuqarolik jamiyati boshqa institutlarining statistika ma'lumotlari asosida ham shakllantirilishi mumkin.

5. Milliy gender statistikasi ko'rsatkichlari tizimi quyidagi asosiy uchta bo'limdan tarkib topgan.

a) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 7-martdagi "Xotin-qizlarning mehnat huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirish va tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlashga oid chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4235-son qaroriga 2-ilova bilan tasdiqlangan Minimal gender ko'rsatkichlar va boshqa ma'lumotlar to'plami.

Ushbu bo'lim BMTning Statistika komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan minimal gender ko'rsatkichlari asosida shakllantirilib, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan tasdiqlangan 54 ta ko'rsatkichdan iborat hamda quyidagi 5 ta asosiy yo'nalishni o'z ichiga oladi.

-iqtisodiy tuzilmalar, ishlab chiqarish faoliyatida ishtirok etish va resurslardan foydalanish huquqi;

-ta'lim;

-sog'liqni saqlash va unga aloqador xizmatlar;

-ijtimoiy hayotda qaror qabul qilish;

-inson, xotin-qizlar huquqlari.

b) O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2021-yil 28-maydagi “2030-yilga qadar O‘zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasini tasdiqlash haqida”gi SQ-297-IV-son qaroriga 3-ilova bilan tasdiqlangan 2030-yilga qadar O‘zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasining maqsadli ko‘rsatkichlari.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining mazkur qarori 3-ilovasida 61 ta maqsadli ko‘rsatkichlar ro‘yxati, 2030-yilga qadar erishilishi nazarda tutilgan maqsadlar hamda ularga erishilishiga mas’ul bo‘lgan ijrochilar belgilangan.

c) Boshqa asosiy gender statistikasi ko‘rsatkichlari 130 ta gender statistikasiga oid ko‘rsatkichlardan iborat bo‘lib, ular quyidagi 9 ta asosiy yo‘nalishlarni qamrab olgan:

- demografiya;
- sog‘liqni saqlash;
- ta’lim;
- jinoyatchilik
- ijtimoiy himoya;
- mehnat;
- turizm;
- sport;
- madaniyat.

3-bob. Milliy gender statistikasi ko‘rsatkichlarini shakllantirish tartibi

6. Minimal gender ko‘rsatkichlar va boshqa ma’lumotlar to‘plami bo‘limining ma’lumotlari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 7-martdagi PQ-4235-son qaroriga 2-ilova (<https://lex.uz/docs/4230944>) bilan tasdiqlangan Minimal gender ko‘rsatkichlar va boshqa ma’lumotlar ro‘yxati asosida mas’ul organlar (vazirliklar va idoralar) tomonidan shakllantiriladi.

Statistika agentligi ushbu ro‘yxat asosida har yil yakuni bo‘yicha mas’ul ijrochilar tomonidan taqdim etilgan ma’lumotlarni umumlashtirib, tahliliy jadvallar shaklida gender.stat.uz rasmiy saytida e’lon qilib boradi.

7. 2030-yilga qadar O‘zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasining maqsadli ko‘rsatkichlari O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining SQ-297-IV-son qarori 3-ilovasida (<https://lex.uz/docs/5466673>) keltirilgan maqsadli ko‘rsatkichlar ro‘yxati asosida ularga mas’ul bo‘lgan ijrochilar tomonidan shakllantiriladi.

Statistika agentligi ushbu ro'yxat asosida mas'ul ijrochilar tomonidan yil yakuni bo'yicha taqdim etilgan ma'lumotlarni umumlashtirib, tahliliy jadvallar shaklida gender.stat.uz rasmiy saytida e'lon qilib boradi.

8. Boshqa asosiy gender statistikasi ko'rsatkichlari Statistika agentligi va boshqa idoralarning kuzatuv ma'lumotlari hamda vazirlik va idoralarning ma'muriy ma'lumotlari asosida Statistika dasturida belgilangan muddatlarda tayyorlanadi. Har yil yakuni bo'yicha tayyorlangan ma'lumotlar tahliliy jadvallar shaklida gender.stat.uz rasmiy saytida Statistika dasturida belgilangan muddatlarda e'lon qilib boriladi.

9. Boshqa asosiy gender statistikasi ko'rsatkichlari quyidagi tartibda shakllantiriladi.

a) "Demografiya" bo'limi demografik jarayonlarni gender o'lchovida aks ettiradigan tug'ilish, o'lim, aholining tabiiy harakati, qayd etilgan nikohlar, nikohdan ajralishlar va aholi migratsiyasi to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Demografik ma'lumotlar mutloq va nisbiy raqamlardan iborat tahliliy jadvallar shaklida aholining jinsi, yashash hududi, yosh guruhlari, shahar va qishloq joylari kesimida shakllantiriladi.

Demografik ma'lumotlar "Asosiy demografik ko'rsatkichlarni shakllantirish bo'yicha uslubiy nizom"ga muvofiq hisoblanadi.

b) "Sog'liqni saqlash" bo'limida o'lim, kasallanish, umr ko'rish davomiyligi, ayrim tibbiy xizmatlardan foydalanish darajasi va boshqa sog'liqni saqlash ko'rsatkichlarini o'z ichiga oladi.

Aholining kasallanishi va o'lim to'g'risidagi ma'lumotlarni shakllantirishda kasalliklar va ular bilan bog'liq bo'lgan salomatlikdagi muammolarning xalqaro statistik tasniflagichidan foydalaniladi.

"Sog'liqni saqlash" bo'limi ma'lumotlari "Sog'liqni saqlash statistikasi bo'yicha uslubiy nizom"ga muvofiq tayyorlanadi.

Jumladan:

15-49 yoshli turmushga chiqqan hamda ittifoqda (nikohsiz) yashayotgan ayollar orasida kontratseptik vositalaridan foydalanish darajasi ko'rsatkichi kamida bitta kontratsepsiya usulidan foydalanadigan reproduktiv (15-49) yoshdagi ayollar sonini jami shu yoshdagi ayollarning o'rtacha yillik soniga nisbati sifatida hisoblanadi.

Perinatal parvarishlash/xizmat ko'rsatish doirasi bu - ko'rib chiqilayotgan davrda tuqqan (tirik) hamda homiladorlik paytida malakali tibbiyot xodimlari tomonidan kamida bir marta tug'ruqqacha parvarishlash xizmati ko'rsatilgan 15-49 yoshdagi ayollarning ulushini ifodalaydi.

Xotin-qizlar va erkaklar kesimida ortiqcha vazn (semizlik)dan aziyat chekayotgan katta yoshlilar ulushi - kam vazn, ortiqcha vazn va semirishni o'lchash uchun xalqaro standart – Tana massasi indeksi (TMI) asosida aniqlanadi.

c) “Ta’lim” bo‘limi – ta’lim sohasidagi imkoniyatlar va ta’lim resurslaridan foydalanish darajasini aks ettiradi. “Ta’lim” bo‘limi o‘quvchilarning jinsi, ta’lim turlari, ta’lim darajasi va savodxonlik darajasi va ta’lim qamrovi bo‘yicha tuzilishini aks ettiruvchi ko‘rsatkichlarni o‘z ichiga oladi.

Shuningdek, mazkur bo‘lim O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuniga muvofiq, maktabgacha ta’lim va tarbiya, umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim, professional ta’lim, oliy ta’lim, oliy ta’limdan keyingi ta’lim va maktabdan tashqari ta’lim turlari bo‘yicha ma’lumotlardan tarkib topgan.

“Ta’lim” bo‘limi ma’lumotlari “Ta’lim statistikasi bo‘yicha uslubiy nizom”ga hamda “Fan (ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalari) sohasida statistik ko‘rsatkichlarni shakllantirish bo‘yicha uslubiy nizom”ga muvofiq tayyorlanadi. Jumladan:

Boshlang‘ich, o‘rta, maktabdan keyingi ta’lim bilan qamrab olish darajasi bo‘yicha gender tengligi indeksi boshlang‘ich, o‘rta va oliy ta’lim bosqichlarida qizlarning o‘g‘il bolalarga nisbatini bildiradi va qizlarning yalpi o‘qishga kirish koeffitsiyentini mos keladigan o‘g‘il bolalarning yalpi o‘qishga kirish koeffitsiyentiga bo‘lish yo‘li bilan hisoblanadi.

Gender pariteti indeksi jinslar tengligi darajasini ko‘rsatadi. Qiymati 1 dan kam bo‘lgan ko‘rsatkich o‘g‘il bolalar foydasiga tengsizlikni ya’ni qizlar noqulay sharoitda ekanligini ko‘rsatadi. 1 dan yuqori ball qizlar foydasiga tengsizlikni ko‘rsatadi, ya’ni o‘g‘il bolalar noqulay sharoitda bo‘ladi.

d) “Jinoyatchilik” bo‘limida jinoyat sodir etgan shaxslar to‘g‘risidagi ma’lumotlar aks ettirilgan bo‘lib, jinoyat sodir etgan shaxslar soni, shu jumladan, jinoyatlarning turlari bo‘yicha hududlar kesimida taqsimlangan ko‘rsatkichlarni o‘z ichiga oladi.

e) “Ijtimoiy himoya” bo‘limi aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlari holatini gender o‘lchovida aks ettiradi.

“Ijtimoiy himoya” bo‘limi ma’lumotlari “Ijtimoiy himoya statistikasi ko‘rsatkichlarni shakllantirish bo‘yicha uslubiy nizom”ga muvofiq tayyorlanadi.

Ushbu bo‘lim nogironligi bo‘lgan shaxslar, pensionerlar va ijtimoiy nafaqa oluvchilar soni, ota-ona qaramog‘isiz qolgan bolalar to‘g‘risidagi ko‘rsatkichlarni o‘z ichiga oladi.

f) “Mehnat” bo‘limi ayollar va erkaklarning mehnat bozoridagi o‘rnini aks ettiradi hamda iqtisodiy faol aholi soni, bandlik, ishsizlik, mehnat sharoitlari va ishlab chiqarishdagi jarohatlar bo‘yicha ko‘rsatkichlarni o‘z ichiga oladi.

“Mehnat” bo‘limi ma’lumotlari O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 22-dekabrda 1011-son qarori bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasining mehnat resurslari, bandlik va aholini ishga joylashtirish balansini ishlab chiqish hamda ishga joylashtirishga muhtoj, mehnat bilan band bo‘lmagan aholini hisoblash metodikasi”, O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining 2018-yil 4-maydagi 13-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Mehnat resurslari hisobot balansini hisoblash bo‘yicha uslubiy nizom”, shuningdek, “Noqulay mehnat sharoitlarida bandlik va ishlab chiqarishda shikastlanganlik ko‘rsatkichlarini shakllantirish bo‘yicha uslubiy nizom”, “Iqtisodiyot bo‘yicha ish haqi miqdorini baholash bo‘yicha uslubiy nizom” va boshqa mehnat statistikasi ko‘rsatkichlarini shakllantirish bo‘yicha uslubiy hujjatlarga muvofiq hisoblanadi.

j) “Turizm” bo‘limida turistlar haqida jins bo‘yicha ma’lumotlar aks ettirilgan.

O‘zbekiston Respublikasiga turistik maqsadlarda kelgan chet el fuqarolari va O‘zbekiston Respublikasidan turizm maqsadida chiqib ketgan fuqarolar to‘g‘risidagi ko‘rsatkichlarni o‘z ichiga oladi.

“Turizm” bo‘limi ma’lumotlari “Turizm statistikasi bo‘yicha uslubiy nizom”ga muvofiq tayyorlanadi.

k) “Sport” bo‘limida jismoniy tarbiya va sport bilan shug‘ullanuvchilar soni va murabbiylar ulushi bo‘yicha ko‘rsatkichlar mavjud.

l) “Madaniyat” bo‘limida madaniyat sohasi xodimlari to‘g‘risidagi ko‘rsatkichlar gender o‘lchovida mavjud.

“Madaniyat” bo‘limi ma’lumotlari “Madaniyat sohasida statistika ko‘rsatkichlarini shakllantirish bo‘yicha uslubiy nizom”ga muvofiq tayyorlanadi.

Boshqa asosiy gender statistikasi ko‘rsatkichlarini hisoblash tartibi bo‘yicha batafsil ma’lumotlar mazkur uslubiy nizomning **“Asosiy gender statistikasi ko‘rsatkichlari ro‘yxati va hisoblanishi”** deb nomlangan ilovasida keltirilgan.

4-bob. Yakuniy qoidalar

10. Yuridik shaxslar tomonidan statistik hisobot shakllaridan, uy xo‘jaliklarining tanlanma kuzatishlaridan, boshqa vazirlik va idoralar tomonidan taqdim etilgan ma’lumotlardan foydalangan holda qayta ishlash natijasida gender bo‘yicha umumlashtirilgan ma’lumotlar shakllantiriladi va tahlil qilinadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi gender statistikasini yuritish uchun mas’ul bo‘lgan boshqa vazirlik va idoralar bilan birgalikda ko‘rsatkichlarni jinslar kesimida ishlab chiqadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasining “Rasmiy statistika to‘g‘risidagi” Qonuni 11.08.2021-yil, O‘RQ-707-son.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Ayollar va erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida” Qonuni, 02.09.2019-yil, O‘RQ-562-son.
3. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2021-yil 28-maydagi “2030-yilga qadar O‘zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasini tasdiqlash haqida”gi SQ-297-IV-son qarori.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 03-iyuldagi “Xotin-qizlarning mehnat huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirish va tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlashga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4235-son qarori.
5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 22-dekabrda 1011-son qarori bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasining mehnat resurslari, bandlik va aholini ishga joylashtirish balansini ishlab chiqish hamda ishga joylashtirishga muhtoj, mehnat bilan band bo‘lmagan aholini hisoblash metodikasi”.
6. BMT Yevropa Iqtisodiy Komissiyasi, Jahon Banki Instituti: «Разработка гендерной статистики: практическое пособие. Справочное руководство для обучения статистиков, подготовленное целевой группой ЕЭК ООН по гендерной статистике с участием различных экспертов», BMT, Jeneva, 2010-yil.
7. BMT Iqtisodiy va ijtimoiy masalalar departamenti, Statistika bo‘limi: «Обеспечение учета гендерных аспектов в статистике». BMT, Nyu-York, 2016-yil.
8. Birlashgan Millatlar Tashkiloti(BMT)ning ayollar holati bo‘yicha to‘rtinchi Butunjahon konferensiyasida tasdiqlangan Pekin deklaratsiyasi va Harakatlar platformasi, 1995-yil.
9. Kasalliklar va ular bilan bog‘liq bo‘lgan salomatlikdagi muammolarning xalqaro statistik tasniflagichi (XKT-10), 1989-yil.
10. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining 2023-yil 24-maydagi 10-son qaroriga ilova “Asosiy demografik ko‘rsatkichlarni shakllantirish bo‘yicha uslubiy nizom”.

11. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining 2020-yil 30-sentabrdagi 34-son qarori bilan tasdiqlangan “Sog‘liqni saqlash statistikasi bo‘yicha uslubiy nizom”.

12. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining 2022-yil 26-yanvardagi 2-son qarori bilan tasdiqlangan “Ta’lim statistikasi bo‘yicha uslubiy nizom”.

13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining 2023-yil 30-noyabrdagi 83-son qarori bilan tasdiqlangan “Ijtimoiy himoya statistikasi ko‘rsatkichlarni shakllantirish bo‘yicha uslubiy nizom”.

14. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining 2018-yil 4-maydagi 13-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Mehnat resurslari hisobot balansini hisoblash bo‘yicha uslubiy nizom”.

15. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining 2022-yil 17-oktabrdagi 36-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Noqulay mehnat sharoitlarida bandlik va ishlab chiqarishda shikastlanganlik ko‘rsatkichlarini shakllantirish bo‘yicha uslubiy nizom”.

16. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining 2018-yil 3-oktabrdagi 19-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Iqtisodiyot bo‘yicha ish haqi miqdorini baholash bo‘yicha uslubiy nizom”.

17. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining 2020-yil 3-dekabrdagi 47-son qarori bilan tasdiqlangan “Turizm statistikasi bo‘yicha uslubiy nizom”.

18. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining 2022-yil 29-sentabrdagi 35-son qarori bilan tasdiqlangan “Madaniyat sohasida statistika ko‘rsatkichlarini shakllantirish bo‘yicha uslubiy nizom”.

19. O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi va Davlat statistika qo‘mitasining 2021-yil 31- martdagi 1-QQ-son va 5-QQ-son qo‘shma qarori bilan tasdiqlangan “Fan (ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalari) sohasida statistik ko‘rsatkichlarni shakllantirish bo‘yicha uslubiy nizom”.

Milliy gender statistikasi ko'rsatkichlarini
shakllantirish bo'yicha uslubiy nizomga
ILOVA

Asosiy gender statistikasi ko'rsatkichlari ro'yxati va hisoblanishi*

T/R	Ko'rsatkichlar nomi	Hisoblanishi
1. Demografiya		
1	Doimiy aholi soni, kishi	Doimiy aholi soni har bir hudud bo'yicha hisobot yili boshidagi aholi soniga hisobot davridagi tug'ilganlar va ko'chib kelganlar sonini qo'shib, o'lganlar va ko'chib ketganlar sonini ayirib tashlash natijasida hosil qilinadi.
2	Aholi umumiy sonida ayollar va erkaklar ulushi, % da	Doimiy aholi tarkibidagi ayollar (erkaklar) sonini jami doimiy aholi soniga bo'lib, natijani yuzga ko'paytirish orqali hisoblanadi.
3	Doimiy aholi sonining hududlar bo'yicha taqsimlanishi, ming kishi	Doimiy ro'yxatda turgan hududi (Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri) bo'yicha hisoblangan aholi soni ko'rsatiladi.
4	Doimiy aholi sonining hududlar bo'yicha taqsimlanishi (shahar joylarda, jinsi bo'yicha), ming kishi	Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrining shahar joylarida doimiy ro'yxatda turgan aholi soni jinsi kesimida ko'rsatiladi.
5	Doimiy aholi sonining hududlar bo'yicha taqsimlanishi (qishloq joylarda, jinsi bo'yicha), ming kishi	Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrining qishloq joylarida doimiy ro'yxatda turgan aholi soni jinsi kesimida ko'rsatiladi.
6	Ayollar va erkaklarning nisbati, promille	Doimiy aholi tarkibidagi jami ayollar sonini jami erkaklar soniga bo'lib, natijani yuzga ko'paytirish orqali hisoblanadi.
7	Shahar joylarda har 1 000 ayolga to'g'ri keladigan erkaklar soni, promille	Doimiy aholi tarkibidagi shahar joylarda yashovchi erkaklar sonini shahar joylarda yashovchi ayollar soniga bo'lib, natijani yuzga ko'paytirish orqali hisoblanadi.
8	Qishloq joylarda har 1 000 ayolga to'g'ri keladigan erkaklar soni, promille	Doimiy aholi tarkibidagi qishloq joylarda yashovchi erkaklar sonini qishloq joylarda yashovchi ayollar soniga bo'lib, natijani yuzga ko'paytirish orqali hisoblanadi.
9	Tug'ilishda kutilayotgan umr davomiyligi, yilda; yosh	Kutilayotgan umr davomiyligi – har bir yosh bo'yicha o'lim darajasi ko'rsatkichi, ushbu ko'rsatkich hisoblangan yil darajasida saqlanib qolgan shartlarda kutilayotgan o'rtacha umr ko'rish davomiyligini bildiradi. Odatda, kutilayotgan umr ko'rish davomiyligi deganda tug'ilgan (0 yoshdagi) insonlarning kutilayotgan o'rtacha umr ko'rish yillari soni tushuniladi va maxsus hisoblar yordamida aniqlanadi.
10	Hududlar bo'yicha 20-29 yoshli doimiy aholi soni (jinsi bo'yicha), kishi	Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida doimiy ro'yxatda turgan 20-29 yoshli aholi soni jinsi kesimida ko'rsatiladi.
11	Hududlar bo'yicha 20-29 yoshli doimiy aholi sonidagi ayollar va erkaklarning ulushi, % da	Doimiy aholi tarkibidagi 20-29 yoshli ayollar (erkaklar) sonini 20-29 yoshli jami doimiy aholi soniga bo'lib, natijani yuzga ko'paytirish orqali hisoblanadi.
12	Hududlar bo'yicha 20-29 yoshli doimiy aholisining har 1 000 ta erkakka to'g'ri keladigan ayollar soni, promille	Doimiy aholi tarkibidagi 20-29 yoshli ayollar sonini 20-29 yoshli erkaklar soniga bo'lib, natijani yuzga ko'paytirish orqali hisoblanadi.
13	Ayollar va erkaklarning o'rtacha yoshi, yosh	Har bir yoshdagi doimiy aholi (ayollar yoki erkaklar) sonini shu yosh raqamiga (masalan, 5 yoshli

		aholi uchun 5 raqamiga) ko'paytirib, natijalar jamlanadi va hosil bo'lgan yig'indini jami aholi (ayollar yoki erkaklar) soniga bo'lish orqali hisoblanadi.
14	Shahar joylarda ayollar va erkaklarning o'rtacha yoshi, yosh	Shahar joylarda yashovchi har bir yoshdagi doimiy aholi (ayollar yoki erkaklar) sonini shu yosh raqamiga (masalan, 5 yoshli aholi uchun 5 raqamiga) ko'paytirib, natijalar jamlanadi va hosil bo'lgan yig'indini shahar joylarda yashovchi jami aholi (ayollar yoki erkaklar) soniga bo'lish orqali hisoblanadi.
15	Qishloq joylarda ayollar va erkaklarning o'rtacha yoshi, yosh	Qishloq joylarda yashovchi har bir yoshdagi doimiy aholi (ayollar yoki erkaklar) sonini shu yosh raqamiga (masalan, 5 yoshli aholi uchun 5 raqamiga) ko'paytirib, natijalar jamlanadi va hosil bo'lgan yig'indini qishloq joylarda yashovchi jami aholi (ayollar yoki erkaklar) soniga bo'lish orqali hisoblanadi.
16	Ayollar va erkaklarning yosh tarkibi bo'yicha taqsimlanishi, ming kishi	Doimiy aholining har bir jins va asosiy yosh guruhleri bo'yicha taqsimlangan soni ko'rsatiladi.
17	Shahar joylarda ayollar va erkaklarning yosh tarkibi bo'yicha taqsimlanishi, ming kishi	Shahar joylardagi doimiy aholining har bir jins va asosiy yosh guruhleri bo'yicha taqsimlangan soni ko'rsatiladi.
18	Qishloq joylarda ayollar va erkaklarning yosh tarkibi bo'yicha taqsimlanishi, ming kishi	Qishloq joylardagi doimiy aholining har bir jins va asosiy yosh guruhleri bo'yicha taqsimlangan soni ko'rsatiladi.
19	Yosh guruhleri bo'yicha doimiy aholisining har 1 000 ta erkakka to'g'ri keladigan ayollar soni, kishi	Doimiy aholi tarkibidagi ma'lum yosh guruhidagi ayollar sonini mos yosh guruhidagi erkaklar soniga bo'lib, natijani mingga ko'paytirish orqali hisoblanadi.
20	Mehnatga layoqatli yoshdan kichik "0-15 yoshdagi" aholining, jami aholidagi ulushi (jinsi bo'yicha), % da	Doimiy aholi tarkibidagi 0-15 yoshdagi ayollar (erkaklar) sonini jami doimiy aholi soniga bo'lib, natijani yuzga ko'paytirish orqali hisoblanadi.
21	Mehnatga layoqatli yoshdagi aholining, jami aholidagi ulushi (jinsi bo'yicha), % da	Doimiy aholi tarkibidagi 15-55 yoshdagi ayollar va 15-60 yoshdagi erkaklar soni yig'indisini jami doimiy aholi soniga bo'lib, natijani yuzga ko'paytirish orqali hisoblanadi.
22	Mehnatga layoqatli yoshdan katta yoshli aholining, jami aholidagi ulushi (jinsi bo'yicha), % da	Doimiy aholi tarkibidagi 55 yosh va undan katta yoshdagi ayollar hamda 60 yosh va undan katta yoshdagi erkaklar soni yig'indisini jami doimiy aholi soniga bo'lib, natijani yuzga ko'paytirish orqali hisoblanadi.
23	Onasining yoshi bo'yicha tirik tug'ilganlar soni, kishi	Tirik tug'ilganlar soni onasining yoshi bo'yicha guruhlariga taqsimlangan holda ko'rsatiladi.
24	Onaning tug'ish tartibi bo'yicha birinchi bolasi, kishi	Onaning tug'ish tartibi bo'yicha birinchi farzandi bo'lgan tirik tug'ilganlar sonini onasining yoshi bo'yicha guruhlariga taqsimlanishi keltiriladi.
25	Onaning tug'ish tartibi bo'yicha ikkinchi bolasi, kishi	Onaning tug'ish tartibi bo'yicha ikkinchi farzandi bo'lgan tirik tug'ilganlar sonini onasining yoshi bo'yicha guruhlariga taqsimlanishi keltiriladi.
26	Onaning tug'ish tartibi bo'yicha uchinchi va undan keyingi bolalari, kishi	Onaning tug'ish tartibi bo'yicha uchinchi va undan keyingi farzandi bo'lgan tirik tug'ilganlar sonini onasining yoshi bo'yicha guruhlariga taqsimlanishi keltiriladi.
27	Tug'ilishning yig'indi koeffitsiyenti, promille	Alohida yosh guruhlaridagi ayollardan tug'ilgan bolalar soni mos yosh guruhlaridagi ayollarning o'rtacha soniga bo'linib, mingga ko'paytiriladi. Yosh guruhleri bo'yicha yig'indi qo'shiladi va natijani yosh guruhleri soniga bo'linib, natijani mingga ko'paytirish yo'li bilan aniqlanadi.
28	50 ming va undan ortiq aholi yashovchi shaharlarda tug'ilganlar soni, kishi	Aholisi soni 50 ming va undan ortiq bo'lgan har bir shahar kesimida tug'ilganlar soni ko'rsatiladi.
29	50 ming va undan ortiq aholi yashovchi shaharlarda vafot etganlar soni,	Aholisi soni 50 ming va undan ortiq bo'lgan har bir shahar kesimida vafot etganlar soni ko'rsatiladi.

	kishi	
30	50 ming va undan ortiq aholi yashovchi shaharlarda aholining tabiiy harakati	Aholisi soni 50 ming va undan ortiq bo'lgan har bir shahar kesimida tug'ilganlar sonidan vafot etganlar sonini ayirish orqali aniqlanadi.
31	50 ming va undan ortiq aholi yashovchi shaharlarda tug'ilgan qizlar va o'g'il bolalar soni	Aholisi soni 50 ming va undan ortiq bo'lgan har bir shahar kesimida tug'ilgan qizlar va o'g'il bolalar soni ko'rsatiladi.
32	50 ming va undan ortiq aholi yashovchi shaharlarda vafot etgan ayollar va erkaklar soni	Aholisi soni 50 ming va undan ortiq bo'lgan har bir shahar kesimida vafot etgan ayollar va erkaklar soni ko'rsatiladi.
33	50 ming va undan ortiq aholi yashovchi shaharlarda ayollar va erkaklarning tabiiy harakati, kishi	Aholisi soni 50 ming va undan ortiq bo'lgan har bir shahar kesimida ayollar va erkaklar bo'yicha tug'ilganlar sonidan vafot etganlar sonini ayirish orqali aniqlanadi.
34	Ayollar va erkaklarning tabiiy harakati, kishi	Jami tug'ilganlar sonidan jami vafot etganlar sonini ayirish orqali aniqlanadi.
35	Onalar o'limi	Homiladorlik, tug'ish va tug'ishdan keyingi davrdagi asoratlar va abortlar oqibatida sodir bo'lgan ayollar o'limi hodisasi. Onalar o'limiga, o'lim sodir bo'lgan joyidan (tug'ruqxonada, ichki kasalliklar, jarrohlik, onkologiya, yuqumli kasalliklar shifoxonasi yoki bo'limlarida va boshqa joylarda), o'limning homiladorlik va tug'ish bilan bog'liqligidan (baxtsiz hodisalardan tashqari) hamda homiladorlik davridan qat'iy nazar, tuqqandan so'ng 42 kun davomida yoki homiladorlik davrida vafot etgan barcha tuqqanlar, homilador ayollar to'grisidagi ma'lumotlar kiritiladi.
36	Go'daklar o'limi koeffitsiyentlari, % da	Hayotining birinchi yilida sodir bo'lgan go'daklar o'limi hodisasi; $Km_0 = \left(\frac{M_0}{N_0} + \frac{M_{-1}}{N_{-1}} \right) * 1000$, bu yerda Km_0 – go'daklar o'limi koeffitsiyenti (promille); M_0 – joriy yilda tug'ilib, shu yili o'lgan 1 yoshgacha bolalar soni (kishi); M_{-1} – o'tgan yilda tug'ilib, joriy yilda o'lgan 1 yoshgacha bolalar soni (kishi); N_0 – joriy yilda tug'ilganlar soni (kishi); N_{-1} – o'tgan yilda tug'ilganlar soni (kishi).
37	Vafot etganlarning asosiy o'lim sabablari, kishi	Xalqaro kasalliklar tasniflagichi (XKT-10) bo'yicha asosiy guruhlariga taqsimlangan o'limlar soni keltiriladi.
38	Vafot etganlarning asosiy o'lim sabablari, 100000 aholiga nisbatan	Alohida kasallik guruhlari bo'yicha o'limlar sonini jami doimiy aholi soniga bo'lib, natijani yuz mingga ko'paytirish orqali hisoblanadi.
39	Asosiy o'lim sabablari bo'yicha mehnatga layoqatli yoshda o'lganlar soni, kishi	Xalqaro kasalliklar tasniflagichi (XKT-10) bo'yicha asosiy guruhlariga taqsimlangan holda, mehnatga layoqatli yoshda vafot etganlar soni keltiriladi.
40	Asosiy o'lim sabablari bo'yicha mehnatga layoqatli yoshda o'lganlar, 100000 aholiga nisbatan	Alohida kasallik guruhlari bo'yicha mehnatga layoqatli yoshda o'lganlar sonini jami doimiy aholi soniga bo'lib, natijani yuz mingga ko'paytirish orqali hisoblanadi.
41	Asosiy o'lim sabablari bo'yicha o'limning standartlashtirilgan koeffitsiyentlari, 100000 aholiga nisbatan	Alohida kasallik guruhlari bo'yicha o'limlar sonini jami doimiy aholi soniga bo'lib, natijani standartlashtirilgan koeffitsiyent va yuz mingga ko'paytirish orqali hisoblanadi.
42	Ayollar va erkaklarning yosh guruhlari bo'yicha o'lim koeffitsiyentlari, promille	Alohida kasallik guruhlari bo'yicha vafot etgan ayollar (erkaklar) sonini jami doimiy aholi soniga bo'lib, natijani standartlashtirilgan koeffitsiyent va mingga ko'paytirish orqali hisoblanadi.
43	Tuzilgan nikohlar va nikohdan ajralishlar soni, ming birlik	FHDYo organlarida qayd etilgan nikohlar va nikohdan ajralishlar soni nikohlanuvchilarning doimiy ro'yxatdan o'tgan manzili asosida shahar va qishloq joylar kesimida taqsimlanishi keltiriladi.

44	Birinchi marta nikohlanuvchi ayollar va erkaklarning o'rtacha yoshi ($\bar{X}$)	$\bar{X} = \frac{\sum_{i=0}^n x_i * P_i}{P}$ bu yerda, x_i – nikohlanuvchilarning yoshi; P_i – x_i yoshdagi nikohlar soni (kishi); P – jami nikohlar soni (kishi).
45	Kelinlarning yoshi bo'yicha nikohlar soni, birlik	Qayd etilgan nikohlar sonini kelinlarning yosh guruhlar bo'yicha taqsimlangan holda keltiriladi.
46	Nikohlanuvchi ayollar va erkaklarning yoshi va avvalgi nikoh holatlari bo'yicha soni	Qayd etilgan nikohlar sonini nikohlanuvchi ayollar va erkaklarning yosh guruhlar va avvalgi nikoh holatlari bo'yicha taqsimlangan holda keltiriladi.
47	Alohida yosh guruhidagi ayollar va erkaklarning nikohlanganlik holati, % da	Avvalgi nikoh holatlari bo'yicha alohida yosh guruhlaridagi nikohlanuvchilarning avvalgi nikoh holatlari bo'yicha jami qayd etilgan nikohlardagi ulushi keltiriladi.
48	Yosh qizlarning erta nikohlanganlik holati, kishi	19 yoshgacha turmushga chiqqan qizlar soni hududlar kesimida taqsimlangan holda keltiriladi.
49	Aholi migratsiyasi, kishi	Doimiy yashash maqsadida ko'chib kelgan va doimiy yashash maqsadida ko'chib ketganlar sonini jinsi bo'yicha taqsimlangan holda keltiriladi.
2. Sog'liqni saqlash		
50	Bolalarning (0-14 yosh) shifoxona o'rinlari bilan ta'minlanganligi 10 000 (0-14 yosh) bolalarga nisbatan	0-14 yoshdagilar uchun shifoxona o'rinlari sonini 0-14 yoshdagi aholi soniga bo'lib 10 000 ga ko'paytirish orqali aniqlanadi.
51	Homilador ayollar va tug'ruqdagi ayollarning shifoxona o'rinlari bilan ta'minlanganligi, 10 000 ayolga nisbatan (15-49 yosh)	Homilador va tug'ruqdagi ayollar uchun shifoxona o'rinlari sonini 15-49 yoshdagi umumiy ayollar soniga bo'lib, 10 000 ga ko'paytirish orqali aniqlanadi.
52	Aholining faol sil kasalligiga chalinishi	Hisobot davrida yangi aniqlangan sil kasalliklariga chalinganlar sonini o'rtacha umumiy aholi soniga bo'lib, 100 000 ga ko'paytirish orqali aniqlanadi.
53	Aholining xavfli o'sma kasalliklariga chalinishi	Hisobot davrida yangi aniqlangan xavfli o'sma kasalliklariga chalinish holatlarini o'rtacha umumiy aholi soniga bo'lib, 100 000 ga ko'paytirish orqali aniqlanadi.
54	Aholining ichkilikbozlik va ichkilik bilan bog'liq ruhiy kasalliklarga chalinishi	Birinchi marotaba tashxisi aniqlangan ichkilikbozlik va ichkilik bilan bog'liq ruhiy kasalliklarga chalingan bemorlar sonini o'rtacha aholi soniga bo'lib 100 000 ga ko'paytirish orqali aniqlanadi
